

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**PEDAGOGIK OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIM JARAYONINI
TASHKIL ETISHDA AMALIYOT BILAN UZVIYLIGINI TA’MINLASH
MASALALARI**

**Respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya
2024-yil, 15-oktyabr**

**Republic-wide scientific and scientific-technical conference
ISSUES OF ENSURING INTEGRATION WITH PRACTICE IN
ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS IN INSTITUTIONS OF
PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION
October 15, 2024**

**Республиканскую научно-техническую конференцию на тему
«РОЛЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА
ВЗАИМОСВЯЗИ С ПРАКТИКОЙ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЫСШИХ
УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ»,
которая состоится 15 октября 2024 года**

JIZZAX – 2024

rivojlanish tendensiyalaridan tortib, yangicha o'qitish texnologiyalarini ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlarga nechog'lik ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish hamda psixologiyadagi metodlarni didaktik metodlar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Buning uchun bo'lajak o'qituvchidan metodik kompetentlik, ayniqsa, turli xil sharoitlarda ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi psixologiyasini to'g'ri baholay olish bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik kompetentlikning yuqori darajada bo'lishi talab qilinadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'limning turli darajalarida mutaxassislarni tayyorlash turli muammolarni hal qilish pedagogik oliy ta'lim muassasalarida o'qishning butun jarayoni davomida talabalarining ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish zarurati va imkoniyati mavjud. Taklif etilib kelinayotgan yondashuvning afzalligi shundaki, talabalar bosqichma-bosqich fan sohasidagi nazariy bilimlardan amaliyotga qo'llay oladilar, tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. 2019-yil 8-oktyabr. www.lex.uz
3. Golish L.V. Ta'limning faol usullari: mazmuni, tanlash, amalga oshirish. Ekspres qo'llanma. – T., 2001. – 68 b.
4. Nuridinov B.S., O'rinov U.A. Ta'lim sohasidagi malakali kadrlar tayyorlash omili // Kasb-hunar ta'limi. – T., 2003. № 6. B.11.
5. O'rinov U.A. Ishlab chiqarish ta'limida amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish usullari // Kasb-hunar ta'limi. – T., 2020. № 3 35–39 b.
6. O'ktamova Sh.H. Education and innovative research 2022-y. № 1.144–153-b. 7. Xolov X.M. PedagogS international research journal. Volume–5, Issue–1, March–2022. 73–77-b

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA BOSHQARUVCHANLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PEDAGOGIK ASPEKTI

Ablyakimova Refide Izmerovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Maktab menejmenti kafedrasida katta o'qituvchisi

E-mail address: ablyakimova.refide@mail.ru

Annotatsiya:

Maqolada bo'lajak o'qituvchilarda boshqaruvchanlik kompetensiyasini rivojlantirishning dolzarbligi, ahamiyati va amaldagi holati tahlili atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: davlat, jamiyat, boshqaruv, xotin-qizlar, gender tengligi, barkamol avlod, rahbar, sivilizatsiya, takomillashtirish.

Abstract:

The article reveals in detail the relevance, importance and current state of development of management competence in future teachers.

Keywords: state, society, goverance, women, gender equality, harmoniously developed generation, leader, civilization, improvement, national mentality.

Аннотация:

В статье подробно раскрыта актуальность, важность и современное состояние развития управленческой компнетентности у будущих учителей.

Ключевые слова: государство, общество, управление, женщины, гендерное равенство, зрелое поколение, лидер, цивилизация, совершенствование.

Bo'lajak o'qituvchi xotin-qizlarni mavqeini oshirish shaxsni shakllantirish bilan bog'liq jarayonlarning bir qismi sifatida ijtimoiy-pedagogik aspektlarga ega. Shu boisdan xotin-qizlarning

rahbar sifatida tayyorlash alohida ijtimoiy-pedagogik jihatdan puxta tashkil etilishi kerak. Pedagogika fanining zamonaviy tendensiyalarida xotin-qizlarni har tomonlama rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida qo'yilmoqda. Bunday munosabat inson kapitalidan to'liq foydalanish strategiyasining ajralmas yo'nalishiga aylanib ulgurdi. Rivojlangan davlatlarda mazkur jarayon bo'yicha maqsadli dasturlar shakllantirilgan. Jumladan: Rossiyada "Ayol – Lider" ta'lim dasturi mavjud - bu barcha ishtirokchilarga umuman ayol yetakchining imkoniyatlariga yangicha qarash imkonini beradigan noyob tajriba. Bu dasturning maqsadi muvaffaqiyatli ayollarning rivojlanishi uchun joy yaratish, mamlakatning ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal etishda birlashishga qodir kabi dasturlar amalga oshirilmoqda.

Bo'lajak o'qituvchi xotin-qizlarda boshqaruvchanlik kompetensiyasini rivojlantirishning turli aspektlari faylasuf, sotsiolog, pedagog va psixolog olimlar tomonidan o'rganilgan.

Jumladan, faylasuf olim X.O.Shayxova ilmiy izlanishlarida o'zbek xotin-qizlarining zamonaviy va milliy fazilatlarini, ularning ijtimoiy hayotdagi, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi o'rni masalalari, markaziy o'rinda turadi.

X.O.Shayxova zamonaviy ayollarni ijtimoiy faolligi oshirib borayotgani ta'kidlagan holda "Biror soxa yuqki, - ayol o'z bilimi faolligi, iste'dodini namoyon kilmasin. Mulkdorlar sinfi vakili, tadbirkor, fermer, kichik va ko'shma korxona sohibi, tijoratchi, biznes va menejer kabi kasb egalari yoki mudofaa va huquq-tartibot soxasida minglab iqtidorli, salohiyatli, akl-zakovatda uktam ayollarning faoliyat ko'rsatishi shakllanayotgan fuqarolik jamiyatimiz uchun oddiy holdir" degan xulosaga keladi [1,88].

A.A.Huseynova ayollarning davlat boshqaruv va siyosiy partiyalar faoliyatidagi ishtiroki, ular ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda nodavlat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining o'rni masalalarini o'rganadi. Uning xulosasiga ko'ra, davlat boshqaruv tepasida asosan erkaklar turishibdi. Shuning uchun "ayollar masalasi"dagi eng murakkab va turli qarama-qarshi yondashuvlarni keltirib chiqarayotgan muammo ham xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvda keng ishtirok etishiga erishishda muhim ekanligini deb ta'kidlaydi [2,27].

N.R.Nishonova o'z tadqiqotlarda davlat organlari rahbarlari lavozimlariga kadrlar zaxirasini shakllantirishda xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligiga rioya etilishi bilan davlat organlarining rahbarlari va tegishli mansabdor shaxslar xotin-qizlar va erkaklarni davlat xizmatiga qabul qilishda teng huquqlilikni, ularning qobiliyati va kasbiy tayyorgarligiga muvofiq ta'minlash orqali samaradorlikka erishish mumkinligini ko'rsatib o'tadi [3,21].

M.A.Karimova tomonidan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurilishida, xotin-qizlarni ijtimoiy muhofazalashning qaror topish yo'llari, uning davlat qonunlari bilan mustahkamlanishi zarur degan xulosaga keladi [4,28].

Sotsiolog T.K.Narbeyeveva o'z tadqiqotlarida O'zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini oshirishning innovatsion modeli tahliliga to'xtalar ekanmiz shunday deydi: Xotin-qizlarning bilim olish, kasb tanlash, lavozimga ko'tarilishda erkaklar bilan ayollarga bir xil imkoniyatlar yaratilishi orqali gender tenglikning hayotimizdan tobora kengroq o'rin olinishiga erishilishi xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishdagi innovatsion modelning tarkibiy jihati hisoblanib, ularning o'z xaq-xuquqlarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida faol ishtirok etishi xotin-qizlar ijtimoiy himoya tizimi samaradorligini oshirishning kafolatidirdir xulosalarga kelgan[5,8].

T.Narbeyeveva tadqiqotlari davomida xotin-qizlarni jamiyatning faol a'zoga aylanishida ta'lim va tarbiya uyg'unligini ta'minlash zarurligini ta'kidlaydi va uning bir necha bosqichlarni ishlab chiqqan:

Birinchidan, oilada ota-onalar tomonidan farzandlarga tarbiya berish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar qatorida, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar xususida tushunchalar berib borish;

Ikkinchidan, maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilar mamlakat siyosiy xayotining bo'lajak ishtirokchilari ekanligi xissini uyg'otuvchi uslublarning zamonaviy vositalaridan foydalanish;

Uchinchidan, umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilariga ijtimoiy-siyosiy bilimlarga bo'lgan ehtiyojini oshirishga yo'naltirilgan fanlardan ta'lim berish;

To'rtinchidan, oliy ta'lim va undan keyingi bosqichlarda siyosiy va huquqiy madaniyatni tadqiq etishga oid ilmiy-nazariy va amaliy faoliyatga rag'bat berish, bunda ta'lim muassasalari va davlat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni keng yo'lga qo'yish;

Beshinchidan, yosh qizlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda madaniyat obektlari (kino, teatr, muzey va h.k.) bilan cheklanib qolmasdan, ijtimoiy-siyosiy tadbirlarda ularning ishtirokini ta'minlash, ushbu yo'nalishlardagi munozara-debatlardagi faolligini oshirish;

Oltinchidan, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarda xotin-qizlarning faol ishtirokini ta'minlash, yosh qizlarning jamiyatda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga daxldorlik tuyg'usini shakllantirish ham ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarimizning asosini tashkil etadi.

S.Safojev ta'kidlashicha: "Rahbarlikka zaxira kadrlarni shakllantirishda xotin-qizlardan istiqbolli kadrlar ro'yxatini tuzish ularni rahbarlikka tayyorlashning samarali mexanizmi ekanligini tadqiqdaydi. Rahbarlikka zaxiraga olinganlar 2016 yilda 3 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda ularning soni 15 mingdan oshdi". Bugungi kunda Oila va xotin-qizlar kumitasi tomonidan 25ming xotin-qizlar zaxirasi yaratilgan.

M.P.Ergasheva tomonidan xotin-qizlar faolligini yuksaltirish asosida boshqaruv takomillashtirishning sotsial asosi sifatida "zamonaviy ayol" qiyofasini muvofiqlashtirish kerak degan xulosa keladi.

M.K.G'afforova ilmiy izlanishlari natijasida XIX asrgacha jamiyatdagi jinsiy differentsiatsiya talqinlari (Aflotun, Arastu, Kant, Hegel) erkaklar ustuvorligi g'oyasiga asoslangan bo'lsa, XIX asr oxiri, XX asr boshlaridan ayollarning jamiyatdagi o'rni va rolining umumjahon miqyosida o'zgarishi tendensiyalari xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy yangicha qiyofasi, imijini shakllantirdi. Bu esa ularning davlat va jamiyatni boshqarishda turli ijtimoiy to'siqlarsiz erkaklar bilan tengma-teng shartlar asosida faol ishtirokini qo'llab-quvvatlovchi ilmiy-nazariy yondashuvlar ishlab chiqilishiga turtki bo'ldi, degan xulosa keladi.

Gender tushunchasi keyingi yillarda pedagoglar tomonidan ham pedagogik muammoga aylandi. Bu borada respublikamiz pedagog olimlari tomonidan ba'zi ilmiy izlanishlar ham olib borildi. Jumladan, O.Jamoldinovaning oliy ta'lim tizimiga gender yondashuv tamoyillarini joriy etish usullari o'ziga xos xususiyatlari va gender tengligi tadqiqotning nazariy va amaliy rejasini belgilab olishda muhim asos bo'ldi.

U.S.Temirovaning ilmiy izlanishlarida harbiy xizmatchi xotin-qizlarni «komandir-buysinuvchi», «harbiy xizmatchi-harbiy jamoa», «harbiy xizmatchi-harbiy xizmatchi» tizimlari doirasida boshqarish va ularni ijtimoiy-siyosiy o'qishini tashkil etishga oid milliy-madaniy xususiyatlarini inobatga olgan holda amal qilishini ta'kidlaydi. Shundan kelib chiqib, xotin-qizlarning mavqeini oshirishning ijtimoiy-pedagogik aspektlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Birinchidan, So'nggi yillarda gender tenglikni ta'minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish bo'yicha bir necha yo'nalishlarda ishlar olib borilmoqda:

Jumladan, Prezidentning xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash, xususan, gender tengligi va ayollarni zo'ravonlik va zulmdan himoya qilish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqomini kuchaytirish to'g'risidagi farmon va qarorlari qabul qilingan.

Ikkinchidan, Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini, yoshlarning ijodiy salohiyatini qo'llab-quvvatlash hamda rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyatini talim muassasalarida keng targ'ib etish zarur.

Xulosa qilib aytganda bugun davlat boshqaruvining jozibadorligi oshib bormoqda. Davlat xizmatida ishlash, shu orqali ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarini rivojlantirishga bo'lgan faollikning ortib borayotganligi buning yorqin isbotidir. Har bir bo'g'indagi davlat xizmatida ayol rahbarlarning soni oshib borayotganligini ko'rish mumkin. Ayniqsa, xalqimizning vakillari faoliyat

yuritadigan qonun chiqaruvchi hokimiyat – Oliy Majlisda xotin-qizlarning ulushi o'tgan saylovda birmuncha oshdi.

Yuqorida ilmiy-nazariy jihatdan o'rganib chiqilgan, pedagogik psixologik adabiyotlar va ilmiy tadqiqot ishlariga asoslanib, shakllantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etishini qayd etish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Шайхова Х. Маънавият-камолот кўзгуси. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009.-Б.88.

[2].Хусейнова А.А. Фуқаролик жамиятини шакллантириш жараёнида аёллар фаоллигини ошириш муаммолари (ижтимоий-фалсафий таҳлил): Фалсафа фан.док. дис.автореферат. Тошкент, 2010. Б.167.

[3].Нишонов Н.Р. “Ўзбекистон давлат бошқарув тизимида хотин-қизлар фаолиятининг ижтимоий-фалсафий таҳлили”. Фалсафа фан док. дис. Тошкент, 2020й. Б.241

[4].Каримова М.А. “Ўзбекистонда хотин-қизларни ижтимоий муҳофазалада исломий кадриятларнинг ўрни”. Фалсафа фанлари номзоди дис. – Тошкент, 2008й. Б.142

[5].Нарбаева Т.К. “Ўзбекистонда хотин-қизларни ижтимоий ҳимоя қилиш тизими самарадорлигини оширишнинг инновацион модели”. Автореферат. Социология докторлик дис.– Тошкент, 2020 й. Б.228

РАБОТА С КАДРАМИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ: СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ

Косимов Азимжон Санакулович

Преподаватель кафедры Школьный менеджмент

Джиззакского государственного педагогического университета

Абстрактный:

На современном этапе социально-экономического развития ко всем сферам системы образования предъявляются высокие требования. Причина в том, что сегодня образование становится важным условием внедрения новых технологий во все сферы человеческой деятельности, повышения конкурентоспособности, повышения уровня жизни. Социальная ответственность высшего образования во многом заключается в том, что каждый человек становится покупателем на быстро меняющемся рынке труда, полноценно участвует в развивающейся инновационной экономике и тем самым улучшает свое благосостояние и благосостояние общества в целом. Она состоит из приобретения профессиональных и социальных навыков, которые позволят обеспечить. Учитывая возрастающую роль высших учебных заведений во многих странах, стратегия его развития определяется национальными стратегическими приоритетами и направлена на повышение качества высшего образования и расширение доступа к нему. Начало рыночных реформ в Узбекистане потребовало серьезной перестройки системы, направленной на подготовку кадров в условиях плановой экономики, причем государство определяет не только мелкие детали необходимости подготовки кадров, но и форму, стиль и идею образования [Решение VM 841 «Об устойчивом развитии до 2030 года»].

Abstract:

The current stage of socio-economic development imposes high demands on all areas of the education system. This is due to the fact that today education has become a key condition for the introduction of new technologies into all spheres of human activity, enhancing competitiveness, and improving the standard of living. The social responsibility of higher education largely lies in the fact that every person becomes a participant in the rapidly changing labor market, fully engages in the evolving innovative economy, and thereby improves their own well-being and the well-being of society as a whole. It involves the acquisition of professional and social skills that will allow individuals to secure a better future. Given the increasing role of higher education institutions in